




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA
MA'LUMOT



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 23 779 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 20 528 ta). Shuningdek, ushbu davrga 38 555 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,6 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar *(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*






Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)

2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 6 989 tani tashkil etdi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yangiariq tumanida (192 taga), Hazorasp (63 taga) va Urganch tumanlarida (61 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 747 taga, sanoatda – 368 taga va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 63 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 23 779 tani tashkil etdi, ulardan 20 654 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,0 foiz, sanoat – 14,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,1 foiz, qurilish – 5,9 foiz. Tumanlar kesimida esa eng ko'pi Urganch shahrida – 20,0 foiz, Urganch – 11,3 foiz, Xonqa – 7,9 foiz, Qo'shko'pir – 7,3 foiz va Xiva shahrida – 7,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 6 891 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 6 860 ta;
- yirik korxonalar 31 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)

6 891

2024

2023

6 376

5 674

2022

2021

4 922

4 641

2020

Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Urganch sh.

921

Urganch

713

Yangiariq

633

Bog‘ot

615

Qo‘siko‘pir

600

Shovot

591

Hazorasp

556

Gurlan

503

Xiva

453

Xonqa

402

Xiva sh.

393

Yangibozor

331

Tuproqqal'a

180

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)

87

Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko‘rsatish

191

Axborot va
aloqa

1 436

Qishloq, o‘rmon
va baligchilik
xo‘jaligi

1 498

Sanoat



421

Yashash va
ovqatlanish bo‘yicha
xizmatlar

702

Boshqa
turlar

248


Tashish
va saqlash

247

Qurilish

2 061

Savdo




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 20 654 tani tashkil etdi, ulardan 20 528 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,9 foiz, sanoat – 16,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,4 foiz, qurilish – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 4,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlar – 11,3 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)

Viloyat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 690 tadan 1 436 taga (o‘sish 746 taga), sanoatda – 1 132 tadan 1 498 taga (o‘sish 366 taga) ko‘paydi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,6 foiz), Urganch (11,7 foiz), Xonqa (8,1 foiz) va Qo'shko'pir (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60,9 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
(2025-yil 1-yanvar holatiga)**

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar—qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Tumanlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Gurlan (15,7 foiz), Urganch (11,6 foiz) va Xonqa (10,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Gurlan	415
Urganch	307
Xonqa	287
Qo‘shko‘pir	265
Yangiariq	245
Bog‘ot	239
Xiva	209
Yangibozor	176
Shovot	163
Tuproqqal‘a	113
Hazorasp	90
Urganch sh.	73
Xiva sh.	61

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**




Sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 14,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,5 foizini ishlab chiqarish sanoati, 1,5 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, 0,5 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, 0,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



3 296 | Ishlab chiqarish sanoati

49 | Suv bilan ta’minalash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

18 | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash


16 | Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Viloyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 58,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 21,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 20,3 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 597 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.


Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 63,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 11,8 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	1 491
Urganch	943
Yangiariq	590
Xiva sh.	574
Bog‘ot	569
Hazorasp	546
Xonqa	532
Qo‘shko‘pir	498
Shovot	486
Xiva	479
Gurlan	385
Yangibozor	334
Tuproqql‘a	188

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



4 856

Avtomobil va mototsikllar
savdosidan tashqari chakana savdo

1 859

Avtomobil va mototsikllar
savdosidan tashqari ulgurji savdo

900

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 534 taga yetib, ularning 1 519 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkaziah bo'yicha xizmatlat yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,6 foiz ulushini tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,4 foiz ulushini tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	375
Xiva sh.	271
Urganch	152
Shovot	90
Xonqa	88
Yangiariq	86
Gurlan	77
Bog'ot	74
Qo'shko'pir	72
Xiva	70
Hazorasp	67
Yangibozor	64
Tuproqqal'a	48

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

2025- yil 1- yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo‘limida korxona va tashkilotlar soni axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 61,8 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo‘limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 32,8 foizini;

Ko‘rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 5,4 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar
	Noshirlik faoliyati
	Kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

127	103		Aloqa
67	55		Axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat
16	4		Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirish

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 512 ta yoki 87,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.


Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 95,4 foizi sog‘liqni saqlash yo‘nalishidagi to‘g‘ri keladi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 2,9 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	207
Urganch	47
Xiva sh.	46
Xonqa	44
Gurlan	41
Hazorasp	38
Qo‘shko‘pir	30
Xiva	30
Shovot	28
Yangiariq	24
Bog‘ot	21
Yangibozor	19
Tuproqqal‘a	9

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- yanvar holatiga)



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	195
Hazorasp	190
Xonqa	118
Urganch	102
Bog‘ot	50
Shovot	49
Xiva sh.	42
Qo‘shko‘pir	41
Gurlan	40
Xiva	38
Yangiariq	29
Yangibozor	16
Tuproqqal‘a	14

2025- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 3,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘naliashlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadi:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 78,8 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalisining korxonalar soni 19,4 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,3 foizni;
- havo va suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni 0,5 foizni tashkil etgan.



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot**
(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

12 955

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

62,7

3 772

xususiy korxonalar

18,3

3 771

oilaviy korxonalar

18,3

30

aksiyadorlik jamiyat

0,1

126

boshqalar


0,6

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Amaldagi 20 654 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- yanvar holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 12 955 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,7 foiz, sanoat – 14,2 foiz, qurilish – 8,6 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)


Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Urganch shahrida – 985 ta, Xonqa – 465 ta va Shovot tumanida – 377 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 551 ta, sanoatda – 677 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 256 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 272 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 3 771 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,6 foiz, sanoat – 21,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 18,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Urganch tumani – 13,7 foiz, Urganch – 13,7 foiz va Xiva shahrida – 11,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)



**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko‘rsatish**

Mavsumiy va ko‘p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo‘limning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, fermer xo‘jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari umumiy sonining 86,7 foizini tashkil etadi.




**Baliq ovlash va
akovakultura**

Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo‘limi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, fermer xo‘jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari umumiy sonining 13,3 foizini tashkil etadi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Hazorasp	11
Bog‘ot	6
Qo‘shko‘pir	5
Shovot	5
Urganch	1
Tuproqqal‘a	1
Yangibozor	1

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**




Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Viloyatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Tumanlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Shovot (12,8 foiz), Xonqa (11,5 foiz) va Yangibozor (10,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.


**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va
akovakultura

562


**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(2024- yil yanvar- dekabr oylarida)**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rshimiz mumkin.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 161,5 foizni tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 133 ta korxonalaridan 54 tasi qo'shma korxonalar va 79 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 5,9 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 133 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkmaniston (ulushi 19,5 foiz), Turkiya (ulushi 18,0 foiz) va Xitoy (ulushi 9,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



Viloyatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta’minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Urganch shahrida 33,8 foiz, tumanlar orasida esa Shovot – 10,5 foiz, Urganch – 9,0 foiz va Xiva – 6,8 foiz to‘g‘ri keladi.

(2025- yil 1- yanvar holatiga ,birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- yanvar** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİ HUZURIDAGI
STATISTİKA AGENTLİĞİ

Mobil versiyası

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

STIR kodini kiritish

Aga xushnazar bo‘la, ro’yven bo‘ling
Zikr qilish

Rasmiagi kodini kiritish

Ochish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qon’isi
2023 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: (62)22-4-65-11